



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 19-avgust

№ 2039

Sudyalar oliy maktabining sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursiga talabgorlarning kirish sinovlarida ishtirok etishga ruxsat berish to‘g‘risida

Sudyalar oliy kengashi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 68-moddasi, “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalari, Sudyalar oliy kengashi Reglamentining 28-moddasi hamda Sudyalar oliy kengashining 2025-yil 19-avgustdagi xulosasiga muvofiq:

1. Sudyalar oliy maktabining sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursiga 1-ilovada ko‘rsatilgan **445 nafar** talabgorlar kirish sinovlarida ishtirok etishga ruxsat etilsin.

2. Sudyalar oliy maktabining sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursiga 2-ilovada ko‘rsatilgan **571 nafar** talabgorlar kirish sinovlarida ishtirok etishga ruxsat etilmasin.

3. Kirish sinovlarida ishtirok etishga ruxsat etilgan talabgorlar ro‘yxati Sudyalar oliy maktabining rasmiy veb-saytida e‘lon qilinsin.

4. Kirish sinovlarida ishtirok etishga ruxsat etilmagan talabgorlarning hujjatlari Sudyalar oliy maktabiga talabgorlarni xabardor qilish uchun qaytarilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi direktori zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi

X.Yodgorov